

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 330.43:314(575.1)

JAMALDINOVA ASALXON SALIYEVNA

**O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLAR O‘ZGARISHINI
STATISTIK TADQIQ QILISH VA PROGNOZLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika ixtisosligi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Xujakulov Xaitmurat Djavliyevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNI STATISTIK O‘RGANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1. Demografiya tushunchasi va uni statistik o‘rganishning nazariy asoslari...	12
1.2. Demografik jarayonlarga ta’sir etuvchi omillarni statistik o‘rganishning ahamiyati.....	26
1.3. Demografik jarayonlarning o‘zgarishini statistik o‘rganishda xalqaro tajribalar va standartlar.....	37
<i>Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	<i>49</i>
II BOB. O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA HARAKATINING STATISTIK TAHLILI.....	51
2.1. O‘zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakati ko‘rsatkichlarini statistik baholash.....	51
2.2. Respublikada aholi migratsion harakati ko‘rsatkichlarining statistik tahlili.....	73
2.3. Demografik jarayonlarni prognozlashning usullari va ulardan foydalanishning shart-sharoitlari.....	82
<i>Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	<i>94</i>
III BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNI STATISTIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH.....	95
3.1. O‘zbekistonda aholining istiqboldagi sonini aniqlashning statistik usullari.....	95
3.2. Demografik jarayonlarning holati va harakatini o‘rganishda ekonometrik modellarni qo‘llash va olingan natijalarni baholash usullari.....	104
3.3. Demografik jarayonlarni ko‘p variantli prognozlashtirishni takomillashtirish masalalari.....	116
<i>Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	<i>125</i>
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	126
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	128
ILOVALAR.....	135

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonlarining kengayib borishi sharoitida mehnat bozori, iste'mol talabi, pensiya tizimi barqarorligi hamda davlat xarajatlarini rejalashtirishda aholi tarkibi, o'sish dinamikasi va migratsiya jarayonlarini tadqiq etishning ahamiyati ortib bormoqda. "Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi yana 50-60 yil o'sishda davom etib, 2080-yillarning o'rtalariga kelib taxminan 10,3 milliardga yetishi kutilmoqda. 2024-yilda bu ko'rsatkich 8,2 milliardni tashkil etgan"¹. Yangi statistik modellar yordamida demografik o'zgarishlarning uzoq muddatli iqtisodiy oqibatlari prognoz qilinib, mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi, ishlab chiqarish strukturasi moslashuvchanligi va investitsiya siyosatining aniq yo'naltirilishi ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, urbanizatsiya, qarish jarayoni va tug'ilish darajasining pasayishi kabi demografik omillar jahon bozorida ishchi kuchining transformatsiyasiga, iste'mol bozorining shakllanishiga va iqtisodiy o'sish modellarining diversifikatsiyasiga olib kelmoqda. Bunday tahlil va prognozlashtirish mexanizmlarining takomillashtirilishi davlatlar va transmilliy korporatsiyalarga demografik o'zgarishlarga mos keladigan samarali iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Jahonda demografik jarayonlarning turli omillar ta'sirida o'zgarishi sharoitida demografik jarayonlarni tahlil qilish, prognoz va boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishning dolzarbligi ortib bormoqda. Innovatsion ma'lumotlar tahlili va prognozlash usullarini takomillashtirish, demografik o'zgarishlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholash, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining dinamikasini o'rganish, shuningdek, mehnat resurslari va ijtimoiy siyosatga ta'sirini modellashtirish, Big Data, sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalari asosida katta hajmdagi demografik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali uzoq muddatli prognozlarni shakllantirish, tug'ilish, qarish, hayot davomiyligi va aholi tarkibidagi o'zgarishlarning ijtimoiy sug'urta, pensiya tizimi va davlat xarajatlariga ta'siri, migratsiya jarayonlarining global iqtisodiyotga ta'sirini

¹ <https://daryo.uz/k/2024/07/12/bmt-dunyo-aholisi-soni-qachon-maksimal-darajaga-yetishini-ochiqladi>.

baholash va mehnat bozorining moslashuvchan modellarini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yoʻnalishlari sifatida namoyon boʻlmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlashga yoʻnaltirilgan iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda mamlakatning demografik vaziyatining oʻrni katta boʻlib, ijtimoiy manfaatlarga yoʻnaltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning oʻsishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish davri nuqtayi nazaridan oʻrganish katta ahamiyatga ega. Chunki aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham isteʼmolchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir². Shunga koʻra, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida “Barqaror iqtisodiy oʻsish orqali daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar qatoridan oʻrin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga toʻliq javob beradigan taʼlim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli taʼminlash”³ vazifalari belgilab berilgan. Qayd qilingan dalillar aholining muhim sotsial-demografik koʻrsatkichlarining holati va rivojlanishini statistik tahlil qilish masalalarini oʻrganishni taqozo etganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini bildiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son “Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son “Oʻzbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-fevraldagi 116-son “Rasmiy statistikani tayyorlash va

²<https://www.collegesidekick.com/study-docs/23194466>

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni.

tarqatish jarayonlariga outsorsing mexanizmlarini joriy etish to'g'risida", 2025-yil 17-fevraldagi "2025-yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi 690-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2002-yil 24-dekabrda 448-son "Demografiya va iste'mol bozorini o'rganish markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Demografik jarayonlarni statistik o'rganishning nazariy-uslubiy jihatlari, demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni statistik o'rganish, uning iqtisodiyotdagi o'rnini hamda demografik statistikaning yuritish kabi muammolar Ch.Corra, C.Carrasco-Gutierrez, G.Abio, E.Choo, T.Dvorak, A.Mason, I.Grossman, D.Coleman, R.Lee, U.Luts va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan⁴.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Tkachenko, M.Karmanov, A.Ishenko, M.Nosova, A.Kvasha, T.Dolbik-Vorobey, L.Ribakovskiy, N.Kojevnikovalar aholi va demografik statistikasiga oid tadqiqotlar olib borgan⁵.

⁴ Correa Ch., Carrasco-Gutierrez C. Demographic changes and intergenerational reallocations in Brazil, 2003-2018 // The Journal of the Economics of Ageing, 2024; Abio G. et al. The role of gender, education and family in the welfare organization: Disaggregating National Transfer Accounts // Econom. Aging, 2021 // <https://doi.org/10.1016/j.jcoa.2021.1003>; Choo E. Age and education effects in Singapore's demographic dividend 1970-2020 // The Journal of the Economics of Ageing, 2024. February. Volume 27. – P. 100482; Dvorak T. How and why does demographic decline lead to support for populist parties? The case of the Czech Republic // Political Geography journal homepage // www.elsevier.com/locate/polgeo; Mason A. et al. Demographic dividends, human capital, and saving // The Journal of the Economics of Ageing, 2016. April. Volume 7. – P. 106-122; Grossman I. Forecasting small area populations with long short-term memory networks // Socio-Economic Planning Sciences, 2023. August. Volume 88. – P. 101658; Coleman D. The Future of Europe's Population: A Scenario Approach. – Springer, Berlin, 2006; Lee R. "Population Aging and the Generational Economy: A Global Perspective", 2003; Luts W. "World Population and Human Capital in the Twenty-First Century", 2014.

⁵ Ткаченко А. Социально-экономическая оценка развития демографической ситуации в России // Социально-трудовые исследования, 2021. – № 4. DOI: 10.34022/2658-3712-2021-45-4-89-97; Карманов М. Интегральная оценка демографической безопасности экономически развитых стран // Инновации и инвестиции, 2016. – № 10; Ищенко А. Демография как приоритет и интегральный показатель результативности стратегического планирования // Административное и муниципальное право, 2024. – № 1. DOI:10.7256/2454-

O‘zbekistonda demografik jarayonlarni iqtisodiy-statistik tadqiq etish va ekonometrik modellashtirish masalalarining ayrim jihatlari Yo.Abdullayev, N.Soatov, H.Shodiyev. B.Begalov, B.G‘oyibnazarov, A.Ayubjonov, I.Habibullayev, B.Utanov, X.Xujakulov, B.Berkinov, L.Maksakova, R.Ubaydullayeva, O.Ata-Mirzayev, A.Abduraxmanov, B.Bahromova, B.Usmonov, N.Tula, X.Abduramanov, A.Xayitov, Sh.Dusnaye, U.Salixodjayeva kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan⁶.

Ushbu tadqiqotlar demografik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlarini iqtisodiy-statistik va ekonometrik nuqtayi nazardan ilmiy-uslubiy jihatlarini o‘rganishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi Biroq globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasida aholining takror barpo bo‘lishi, demografik jarayonlarni turli ijtimoiy indikatorlar asosida kompleks statistik tahlil qilish va prognozlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Bu esa, ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

0595.2024.1.69801.EDN:VHOTSJ URL: <http://nbpublish.co.library>; Носова М. Методы демографического анализа и прогноза // Physics and mathematics “Colloquium-journal”, 2021. 1511921; Кваша А. “Миграционные процессы и демографическая политика”. – М., 1982; Долбик-Воробей. Статистика населения и демография. – М., 2018; Рыбаковский Л., Кожевникова Н. Стратегия демографического развития России, её основной вектор и его детерминанты / Демографическое развитие России: проблемы и пути решения: сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. – М., 2021.26 апреля. – С 4,7.
⁶ Abdullayev Yo. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: O‘qituvchi, 2002; Soatov N. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. – 743 b.; Shodiyev H., Habibullayev I. Statistika. Darslik. – T., 2019; Begalov B. Сколькa нас? Определит перепись // Народное слово. – T., 2020. 24 апреля // [http //xs.uz/site newspaper](http://xs.uz/site newspaper); G‘oyibnazarov B. O‘zbekiston respublikasi hududlarida aholi bandligi holatini statistik baholash // O‘zbekiston statistika axborotnomasi. – T., 2022. 1-son; Ayubjonov A. Amaliy statistika. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2023. – 623 b.; Habibullayev I., Utanov B. Ekonometrika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018; Xujakulov X., Ro‘ziyev A. O‘zbekiston Respublikasida demografik vaziyatning holati va o‘ziga xos xususiyatlari // Moliya ilmiy. – T., 2024. – № 6; Беркинов Б. Эконометрика. Уқув қўлланма. – T.: Фан ва технология, 2015; Максакова Л. Миграция населения Республики Узбекистан. – T.: Эльдинур, 2000. – 116 с.; Убайдуллаева Т.Р., Ата-Мирзаев О., Умарова Н. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. – T.: Университет, 2006; Абдурахманов А. Ўзбекистон Республикаси аҳолисини такрорий қўпайишини иқтисодий-статистик таҳлили. Дисс.: 08.00.06. – Тошкент, 2010; Bahromova B. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo‘nalishlarini ijtimoiy-statistik tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida). Dissertatsiya: 08.00.06.2018; Usmonov B., Abduraxmonov A. Aholi statistikasi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 141 b.; Тула Н. Совершенствование статистического исследования взаимосвязи и демографических процессов и рынка труда. Диссертация: 08.00.06. – М., 2019; Abduramanov X., Xayitov A. Demografik tahlil. – T.: Innovatsion rivojlanish, 2021; Dusnaye Sh. O‘zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishni iqtisodiy-statistik baholash. Dissertatsiya: 08.00.06. – T., 2023; Salixodjayeva U. O‘zbekistonda aholi turmush darajasining statistik tadqiqi. Dissertatsiya: 08.00.06. – T., 2022.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarning o‘zgarishini iqtisodiy-statistik tadqiq qilishning uslubiy jihatlarini baholash hamda prognozlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

demografiya tushunchasi va uni statistik o‘rganishning nazariy asoslarini yoritish;

demografik jarayonlarni baholashning statistik ko‘rsatkichlari tizimini tadqiq etish;

demografik jarayonlarning o‘zgarishini statistik o‘rganishda xalqaro tajribalar va standartlarni o‘rganish;

O‘zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakati ko‘rsatkichlarini statistik baholash;

Respublikada aholi migratsion harakati ko‘rsatkichlarining statistik tahlilini amalga oshirish;

demografik jarayonlarni prognozlashning usullari va ulardan foydalanishning shart-sharoitlarini tadqiq etish;

O‘zbekistonda aholining istiqboldagi sonini aniqlashning statistik usullarini baholash;

demografik jarayonlarning holati va harakatini o‘rganishda ekonometrik modellarni qo‘llash va olingan natijalarni baholash;

demografik jarayonlarning ko‘p variantli prognozashtirish ko‘rsatkichlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida demografik jarayonlarni o‘rganish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarida istiqomat qiluvchi aholi demografiyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib demografik jarayonlarni statistik baholashdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida statistik kuzatish, guruhlash, mutlaq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar, statistik jadval va grafiklar, korrelyatsion-regression

tahlil, indekslar, taqqoslash kabi statistik usullar va ARIMA, ARDL, PANEL kabi ekonometrika usullari qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga koʻra, “demografik jarayonlar oʻzgarishi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni aholi soni, tarkibi, tarqalishi va migratsiyasidagi uzluksiz dinamik oʻzgarishlarga ishchi kuchining shakllanishi, isteʼmol bozori hajmi, mehnat resurslari taklifi, investitsiya talablari, ijtimoiy infratuzilmaga boʻlgan ehtiyoj va iqtisodiy oʻsish surʼatlariga bevosita taʼsir koʻrsatishi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

Oʻzbekistonda demografik jarayonlar oʻzgarishini statistik tadqiq qilishda indikativ omillarni kompleks qoʻllagan holda shakllantiriluvchi integral koʻrsatkichlar tizimi tarkibiga mehnatga qobiliyatli har 1000 ta aholiga toʻgʻri keladigan mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta shaxslar sonini kiritish orqali demografik barqarorlik indikatorlarining aniqlik darajasini oshirish asoslangan;

nikoh koʻrsatkichlarini tahlil qilish nikohning umumiy koeffitsiyenti bilan bir qatorda jami nikohlar sonini nikohlanish qobiliyatiga ega boʻlgan yosh (*16 va 69 yosh*)dagi aholi soniga nisbatan hisoblashga asoslangan nikohning maxsus koeffitsiyenti koʻrsatkichini qoʻllash orqali takomillashtirilgan;

asosiy demografik koʻrsatkichlar oʻrtasidagi koʻp omilli regression bogʻliqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida Oʻzbekistonda aholi soni dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Oʻzbekistonda demografik jarayonlar oʻzgarishi statistik tadqiq qilingan; hududlar aholisini dinamik oʻsishini hisobga olib, aholining tabiiy va migratsion koʻrsatkichlari statistik tahlil qilingan;

Oʻzbekistonda demografik jarayonlar oʻzgarishini statistik tadqiq qilishda indikativ omillarni kompleks qoʻllagan holda integral koʻrsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan;

aholining takror barpo boʻlishi, undagi oʻzgarishlar va ularga taʼsir qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillar statistik tahlil etilgan;

ijtimoiy-demografik tadqiqotlar natijalari asosida hozirgi avlodning reproduktiv faoliyati o'rganilgan;

O'zbekistonda hududlar aholisining iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda aholi jon boshiga daromadlar panel modeli asosida tahlil qilingan va takliflar ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda demografik jarayonlarning prognoz qiymatlarida ARIMA modeli optimal model ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari va xulosalarining ishonchliligi xorijiy va mahalliy olimlarning bu yo'nalishda olib borgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasidan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar hududlarda innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalish va dasturlarga muvofiqligi hamda tegishli xulosalar vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda O'zbekistonda demografik jarayonlar o'zgarishini statistik tadqiq qilish va prognozlashtirish bo'yicha berilgan takliflar asosida aholini takror barpo etishning tabiiy harakati ko'rsatkichlarini nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirilishida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan demografik jarayonlar o'zgarishini statistik tadqiq qilish va prognozlashtirishda sohani istiqbolli rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni ishlab chiqishda, shuningdek, "Aholi statistikasi" va "Ijtimoiy statistika" kabi fanlarni oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda demografik jarayonlar o'zgarishini statistik tadqiq qilish va prognozlashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "demografik jarayonlar o'zgarishi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini aholi soni, tarkibi, tarqalishi va